

O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar tarixiga oid yozma manbalar (V-VIII asrlar)

Jumaboyeva Nilufar Soyibjon qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: O'rta asrlarda yaratilgan xitoy yozma yodgorliklarida O'rta Osiyoning V-IX asrlar tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Ularni shartli ravishda 1) xitoy solnomalari hamda 2) xitoylik sayyoohlarining safarnomalari kabi guruhlarga bo'lish mumkin. Ilk xitoy yilnomalaridan biri "Lyangshu" ("Lyang sulolasasi tarixi") bo'lib, bu asar 589-636-yillarda Yao Silyan va boshqa tarixchilar tomonidan yozilgan. Unda O'rta Osiyo va Farg'ona tarixiga doik ma'lumotlar mavjud.

Kalit so'zlar: "Lyangshu", "Beyshi", "Suyshu", "Tanshu

Li Yanshou (VII asr) "Beyshi" ("Shimoliy sulolalar tarixi") nomli asar muallifidir. U Tan sulolasasi davrida yashagan saroy tarixchisi bo'lgan. Li Yanshou bir necha tarixiy xronikalar yaratishda ishtirok etgan. "Beyshi" (643) da Xitoyning shimoli va shimoli-g'arbida joylashgan 5 ta (Shimoliy Vey, Sharqiy Vey, G'arbiy Vey, Shimoliy Chi va Shimoliy Chjou) davlatlari tarixi bayon qilinadi. Ushbu xronikada Li Yanshou 386-yildan to 618-yilgacha sodir bo'lgan voqealarni yoritadi. "Beyshi"da O'rta Osiyo, Xorazm, Farg'ona va Sharqiy Turkiston haqida ma'lumotlar uchraydi.¹ Yan Shigu, Kxun Inda va Syuy Jinzung "Suyshu" ("Suy sulolasasi tarixi") deb atalgan tarixiy yilnama mualliflaridir. Ushbu asar VII asrning birinchi yarmida yaratilgan. Suy va Tan davlatlari o'z tashqi siyosatida Turk xoqonligiga katta e'tibor bergenligi bois "Suyshu"da turklar tarixiga doir talay ma'lumotlar mavjud. Asarning 3-bobida (bu bob "Shiyuy" – "G'arb o'lkalari" deb ataladi) O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar tarixiga doir ma'lumotlarni uchratish mumkin. O'rta Osiyo to'g'risida "Syan Tanshu" ("Tan sulolasining yangi tarixi") solnomasida ham e'tiborga loyiq ma'lumotlar bor. Ushbu asar 1044-1060-yillarda tarixchilar Ouyan Yangshyu (1007-1072) va Sun

¹ Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (қадимги замон ва ўрта асрлар). – Т.:Ўқитувчи, 2001.

Si (998-1061) tomonidan yozilgan. Asarning asosini 941-945-yillarda Lyu Xu rahbarligida saroy tarixchilari yozgan "Tanshu" solnomasi tashkil etadi. Oyan Yangshyu va Sun Si oldingi yilnomani qisqartirib va tahrir etib, uni yangi ma'lumotlar bilan boyitdilar. "Syan Tanshu"da Samarqand, Farg'ona, hozirgi Janubiy O'zbekiston, Eron, Afg'oniston va Sharqiy Turkiston to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar tarixini o'rganishda bu yerga tashrif buyurgan xitoylik sayyohlar Syuan Szan va Xoy Chao yozib qoldirganyo'l xotiralari muhim ahamiyatga ega. Syuan Szan 600 (yoki 602) yilda Xenan viloyatida amaldor oilasida tavallud topdi. 627-yilda u Chan'an shahriga ko'chib keladi va Hindistondan kelgan buddaviylik dini olimi bilan tanishadi. Uning ta'siri ostida Syuan Szan Hindistonga ziyyaratga borishga qaror qiladi. Garchiunga safarga borish uchun rasmiy ruxsat berilmagan bo'lsa-da, u maxfiy tarzda mamlakatdan chiqib ketadi va Turfon, Oqsuv, Issiqko'l, Toshkent, Samarqand, Buxoro va hozirgi Afg'oniston orqali Hindistonga keladi. Bu yerda u deyarli 17 yil hayot kechiradi.² 645-yilda borgan yo'lidan vataniga qaytadi. Syuan Szan o'z yurtida katta tantana bilan kutib olinadi. Bir yildan so'ng u o'zining "Datang shyuy ji" ("Buyuk Tang sulolası davrida g'arbiy mamlakatlar to'g'risidagi esdaliklar") deb nomlangan yo'l xotiralarini imperator Li Shimingga taqdim etdi. Syuan Szan So'g'dga 629-yilda kelgan. Uning xabar berishicha, viloyatning markazi Samokien (Samarqand) shahri bo'lgan. Sayyohning qayd etishicha, bu yerda aholi gavjum, yerlar esa serhosildir. So'g'dda mevali daraxtlar va gullar ko'p, iqlimi yumshoq va mo'tadil. So'g'dliklar mohir hunarmand va uddaburon savdogarlardir. So'g'd "varvarlar"mamlakatining qoq o'rtasida joylashgan bo'lib, tevarak-atrofdagi aholi axloq va odob bobida ulardan o'rnak oladi. So'g'diy larning podshosi nihoyat jasur, barcha qo'shni viloyatlar uning farmonlariga bo'ysunadilar. Uning ko'p sonli lashkari hamda otliq askarlari bor. Lashkarda "chi-kia"deb atalgan jangchilar bo'linmasi alohida mavqega ega. Ular shu darajada mard va jasurki, hech ikkilanmay o'limga tik qarashadi. Jangda chi-kiahujum qilsa, hech bir dushman bardosh berolmaydi. Syuan Szan Mimoxe (Maymurg'), Szebudana (Kabudan), Syuyshuanna (Kushoniya), Buxe (Buxoro), Szeshuanna (Kesh) va boshqa shaharlar to'g'risida ham ma'lumotlar yozib qoldirgan. Sayyoh ularninghar biriga tavsif berib, ko'p hollarda: ular "urf-odat va [ishlab chiqaradigan] mahsulotlar jihatidan Samokiyen (Samarqand) bilano'xshashdirilar", – degan iborani qaytaradi. Arablar

² Арслонзода Р.А. Источниковедение: Учебник. – Ташкент: Навруз, 2019.

istilosidan keyingi davrda So‘g‘d va boshqa viloyatlar ahvolini anglash uchun boshqa sayyoh – budda rohibi, asli kelib chiqishikoreys bo‘lgan Xoy (Xuey) Chao yozib qoldirgan ma’lumotlar muhimdir. U yoshligida Xitoya kelib qolgan edi. Xoy Chao ham ziyoratga otlanib, dengiz yo‘li orqali Hindistonga boradi. Ma’lum vaqt bu yerda bo‘lib, keyirchalik O‘rta Osiyo va Sharqiy Turkiston orqali Xitoya qaytadi. Taxminan VIII asrning o‘rtalarida u o‘zining "Vangu tyanchju-guo chjuan" ("Hindistonning beshta davlatiga sayohat bayoni") nomli asariniyozadi.³ O‘zoq asrlar davomida ushbu asar yo‘qolgan, deb hisoblanar edi. Ammo 1908-yilda Dunxuandagi Mogaoku buddaviy ibodatxonaningbekitib tashlangan xonalaridan birida mingdan ziyod kitob va hujjatlar topildi.

Xulosa: Ushbu manbalarni tanqidiy tahlil etish va ulardan ijodiy tarzda foydalanish O‘rta Osiyoning V-IX asrlar tarixining ko‘p sahifalarini teran yoritish imkoniyatini beradi.

Manbalar, adabiyotlar va elektron resurslar

1. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (қадимги замон ва ўрта асрлар). – Т.:Ўқитувчи, 2001.
2. Арслонзода Р.А. Источниковедение: Учебник. – Ташкент: Навruz, 2019.
3. Бичурин И.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии древние времена. – Москва-Ленинград: Т. 1-2. 1950; Т.3. 1953.
4. Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. Изд. второе. Книга первая. – Душанбе: Ирфон, 1989

³ Бичурин И.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии древние времена. – Москва-Ленинград: Т. 1-2. 1950; Т.3. 1953.